

MADANIYATLARARO MULOQOT ATAMASINING LINGVODIDAKTIK TALQINI

Yakubov Fazliddin O‘taganovich

Jizzax politexnika instituti

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis tili darslarida nutq malakalarini mamlakatshunoslikka doir matnlar yordamida rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, lingvodidaktika, tahlil, metodika, tarjimashunoslik, chet til, mamlakatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokulturologiya.

Аннотация: В статье анализируются лингводидактические основы развития навыков говорения на уроках немецкого языка с использованием текстов по страноведению и обучению межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, лингводидактика, анализ, методика, переводоведение, иностранный язык, страноведение, лингвострановедение, лингвокультuroлогия.

Abstract: This article analyzes the linguodidactical foundations of developing speaking skills in German lessons using texts on country studies and teaching intercultural communication.

Keywords: intercultural communication, linguodidacty, analysis, methodology, translation studies, foreign language, country studies, linguocountry studies, linguoculturology.

Xorij mamlakatlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatish, birinchi navbatda, o‘sha yurtlar aholisining tili va madaniyatini bilishni taqozo etadi. Chet til(lar)ni jumladan, nemis tilini puxta egallagan raqobatbardosh mutaxassislargina murakkab va manfaatli yumushlarni uddalay oladilar.

Bugungi kunga kelib, nemis tili o‘qitish metodikasidagi yangi o‘zgarishlar natijasida xorijiy tilni, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rgatish/o‘rganish orqali egallashga e‘tibor kuchaydi. O‘tgan asrning 50-80 yillariga kelib chet til o‘qitish metodikasida turli yangi atamalar paydo bo‘ldi. Jumladan “chet til o‘qitish” atamasi bilan birga “chet tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatish” yoki “chet tilda gapirishni o‘rgatish”, “chet til darslarida madaniyatlararo muloqotga o‘rgatish” atamaları qo‘llana boshlandi [Devidson D., Mitrafanova O.D., 1990]. Bu to‘g‘risida ko‘plab ilmiy maqolalar, nomzodlik (L.Ilieva-2006, A.Isaqov-2008, SH.Ubaydullaev-2009 va b.) va doktorlik (D.Xoshimova-2008, G.Mahkamova-2011) ishlari ham olib borildi. Ularning ko‘pida bu atamaga turli qarashlar mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Jumladan, Germaniyada uni *sprachbezogene Landeskunde* ya‘ni tilga yo‘naltirilgan mamlakatshunoslik, Fransiyada esa *language at civilisation* - til va sivilizatsiya, Amerikada *cultural*

literacy va crosscultural communication atamaları bilan qoʻllay boshladilar [42; 121; 156; 158]. Shu bilan birga, nemis tilida gaplashuvchi mamlakatlar chet til oʻqitish metodikasida keng qoʻllanadigan *Landeskunde* atamasi bilan sinonim tarzda *Kulturkunde*, *Voelkerkunde*, *Realienkunde* atamaları qoʻllanib kelinganligi ham yoritib oʻtiladi.

Endi chet til oʻqitish metodikasida keng qoʻllanayotgan “Chet til”, «Mamlakatshunoslik», «Lingvomamlakatshunoslik», “Lingvokulturologiya”, “Madaniyatlararo muloqot” kabi atamalar toʻgʻrisida batafsil fikr yuritsak.

Chet til oʻqitish metodikasi nazariyasi va amaliyotida qoʻllanadigan atamalarning nomlanishida har xil jumboqlar mavjudki, ularni tartibga solish toʻgʻrisida koʻplab ilmiy maqolalar chop etilgan. Masalan, J. Jalolovning “Lingvodidaktikaning zamonaviy konseptual yangilanish bosqichi xususida”gi maqolasi, S. Saydaliyevning “Madaniyatlararo muloqot” atamasiga bagʻishlangan maqolasi shular jumlasidandir. Maʼlumki, xorijiy til oʻquv predmeti oʻzbek tilida rasman ikki xil aytilib/yozilib keladi: “chet til va chet tili(?)”. Ulardan birinchisi Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi tasdiqlagan nazariy kurs (Jalolov J.J. Chet til oʻqitish metodikasi: Chet tillar oliy oʻquv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1996. - 368 b.)da qabul qilingan.

“Chet til” deganda, kimning tili emas, balki qanday til haqida gap boradi: *chet el*, *chet oʻlka*, *chet mamlakat*, *chet joy*, *chet jism* kabi soʻz birikmalarida boʻlganidek, *chet soʻzi oʻzga*, *boshqa*, *begona*, *yot*, *xorijiy*, *ajnabiy* maʼnolarini ifodalab keladi (Qarang: Oʻzbek tilining izohli lugʻati. - Moskva: Rus tili, 1981. -T. II. - B. 364; Begmatov E. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. - Toshkent: Fan, 1985. - B. 104 va b.). Akademik manba-izohli lugʻatda qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan va hukumat tashkiloti (vazirlik) tavsiya etgan darsliklarda oʻz tasdigʻini topgan, oʻzbek tili fanining yirik arboblari (akademik Alibek Rustamiy, professor Nizomiddin Mahmudov va b.)ning sinchkov nazaridan oʻtgan *chet til* atamasi toʻgʻri ishlatilishi shart, deb oʻylaymiz.

Yana bir qator misollarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi: koʻnikma, malaka, idrok, oʻquv materiali, talaffuz, oʻqish/oʻqilish/oʻqitish, yozuv/yozish/yozma, oʻzlashtirish va egallash, nutqiy vaziyat va simulyatsiya, ixtisos va kasb, oʻqish turlari, lugʻat/vokabulyar/leksika, lisoniy mikrobirliklar, tinglash/eshitish, gap/jumla, interferentsiya va transpozitsiya (fatsilitatsiya), qiyinchilik va xato kabi lingvodidaktik atamalarni koʻpchilik metodistlarimiz, afsuski, chalkashtirishmoqda. Ularning har biri til oʻqitish ilmida oʻziga xos tushunchalarni ifodalaydi. Har qanday ilmiy sohani egallashga uning muayyan terminologik apparatini, boshqacha aytganda, tushunchalar majmuini puxta oʻzlashtirish orqali erishiladi. Aks holda yetuk mutaxassis boʻlish amrimaholdir.

Ilmiy adabiyotlarda «*Mamlakatshunoslik*» tushunchasi qoʻllanganda - tili oʻrganilayotgan mamlakatning tarixi, geografik oʻrni, iqtisodi va boshqa sohalar toʻgʻrisida maʼlumotlar bilan tanishtirish deb eʼtirof etiladi. Mamlakatshunoslik ekstralingvistik axborotlarni tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, til faktlarini oʻzida toʻliq qamrab oladi.

«Lingvomamlakatshunoslik» esa – chet til yordamida o`quvchilarga tili o`rganilayotgan mamlakat(lar)ning milliy tili va madaniyatini o`rgatish va ularni tabiiy muloqotga tayyorlash orqali axborot almashish malakalarini rivojlantirish sifatida qo`llanadi. Uning mamlakatshunoslikdan farqi shundaki, lingvomamlakatshunoslik bir tomondan tili o`rganilayotgan mamlakatning nafaqat tarixi, davlat tuzilishi, shu bilan birga milliy-madaniyati haqidagi axborotlarni bersa, ikkinchi tomondan matnlarni o`qish jarayonida tildagi milliy o`ziga xos so`z (realiya)lar, ya`ni muqobilsiz til birliklari, frazeologiya, aforistikani tarjima qila olish, nutq madaniyatidan nutqiy muloqotda foydalanishga o`rgatadi [40; 42].

Lingvomamlakatshunoslikning obyekti til va nutq birliklaridan tashkil topadi. Ma`lumki, E. M. Vereshagin, V. G. Kostomarov, G. D. Tomaxin, Y. N. Karaulov, V. V. Vorobyov, A. Vejbitskaya, S. G. Ter-Minasova olib borgan tadqiqotlarda til va madaniyat muammolari masalasi tadqiq qilinadi.

Lingvomadaniyatshunoslik muommolariga doir ilmiy ishlar tahlili natijasida u, *madaniyat, millat, milliy madaniyat, til, milliy til, mentalitet* tushunchalari bilan mazmunan bog`liqliligini guvohi bo`lamiz.

Lingvokulturologiya – lingvistika va madaniyatshunoslik o`rtasida vujudga kelgan yangi mustaqil fan. U xalqlar madaniyatining vujudga kelish tarixi va uning tilda aks etish jihatlarini o`rganadi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davrini ikkiga bo`lish mumkin: birinchi davr: fanning vujudga kelish davri. Bu asosan V. Gumboldt, Y. Grimm, A. A. Potebnya, E. Sepir ishlarida o`z aksini topgan. Ikkinchi davr: lingvokulturologiyaning mustaqil fan deb tan olinishidir. (“Lingvokulturologiya” atamasi birinchi bor V. V. Vorobyov, V. N. Teliya va V. A. Maslova ishlarida qayd etilgan).

O`tgan asrning 70 yillariga kelib amerikalik olim E. Xoll “Madaniyatlararo muloqot”, “Ko`pmadaniyatlilik” tushunchalarini birinchi bo`lib fanga olib kirdi desak mubolag`a qilmaymiz. Uning “Muloqot – bu madaniyatdir, madaniyat – esa muloqotdir” degan shiori muloqot va madaniyat o`rtasidagi o`zaro aloqani belgilab berdi. “Madaniyatlararo muloqot” atamasi hozirgi kunga kelib ommaviylashib ketdi, shu bois bu atamaning pedagogik, psixologik, didaktik adabiyotlarda ko`p uchraydigan, qo`llaniladigan atamaga aylanib bormoqda. «Madaniyatlararo muloqot» tushunchasi zamiridagi ma`no biroz o`zgarishi, bir-biridan qo`llanish jihatidan farq qilishi mumkin. Ta`limshunoslik (Lingvodidaktika) sohasida ham «madaniyatlararo muloqot» tushunchasi o`z xususiyati va o`rniga egadir.

Madaniyatlararo muloqot (nem. *Interkulturelle Kommunikation*, ing. *Culturell communication*, rus. *Mejkul`turnaya kommunikatsiya*) tushunchasini ilmiy jihatdan to`g`ri tasavvur etish uchun «Madaniyatlararo muloqot nazariyasi va amaliyoti» [179:105;184:33] deb atalib kelinayotgan yangi sohaning lingvistika, filologiya, madaniyatshunoslik, pedagogika, psixologiya, sotsio-, psixo-, etnolingvistika fanlari bilan aloqasini o`rganish va ular qatorida tutilgan mavqeyini aniqlash muhim sanaladi. Madaniyatlararo muloqot atamasini yoritish uchun kommunikativ metodgacha bo`lgan davrni tahlil qilamiz.

Chet til o`qitish metodikasida yoritilgan metod va yondashuvlar juda ko`p va rang-barangdir. CHet til o`qitish metodlari ilmiy muammosi ko`plab tadqiqotchilarni o`ziga jalb etgan. Ularni umumlashtirgan holatda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) tarjima metodi; 2) to`g`ri va tabiiy (natural) metodlar va ularning zamonaviy ko`rinishlari; 3) aralash (omixta) metodlar; 4) ongli-qiyosiy metod; 5) shaxs faoliyatiga mo`ljallangan kommunikativ metod.

Shu bilan birga turli zamon va makonda chet tilni o`rgatishga o`ziga xos yondashuvlar maqbul topilgan. I. L. Bim chet til ta`limidagi yondashuvlarni quyidagi to`rt guruhga bo`ladi: 1) bixevioristik yondashuv (til materialini mexanik tarzda ko`p martalab takrorlash bilan unga oid ko`nikma va malaka hosil qilish), 2) induktiv – ongli yondashuv (misollardan qoidalarni anglashga qarab borish), 3) tizimli yondashuv(morfologiya va sintaksisni o`rgatish), 4) bilish (kognitiv) yondashuv (Bim I. L. Teoriya i praktika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole: Problemi i perspektivi: –M.: Prosveshenie, 1988. – S 6).

Keyinga vaqtga kelib chet til o`qitish metodikasiga doir adabiyotlarning ayrimlarida funksional-semantik yondashuv, tematik yondashuv [111: 72], struktural-funksional yondashuv (Bim I. L. K probleme planiruemogo rezul`tata obucheniya inostrannim yazshkam v sredney obsheobrazovatel`noy shkole // Inostrannie yaziki v shkole.-1984. № 6. – S. 20-23), shaxs faoliyatiga qaratilgan kommunikativ yondashuv [112:216], o`qish orqali yondashuv atamallari tez-tez ko`zga tashlanmoqda. Chet til ta`limidagi yondashuvlardan yana biri kommunikativ yondashuvdir. Chet til o`qitish metodikasining yirik namoyondalaridan E. I. Passov, V. G. Kostomarov, O. D. Mitrofanovlar kommunikativ yondashuvga katta ahamiyat berish kerakligini qat`iy turib himoya qiladilar. E. I. Passovning ta`kidlashicha, chet tilni o`qitishdan ko`zlangan maqsad tilni o`rganish emas, yoki nutqni “fikrni shakllantirish va ta`riflash usuli” (I. A. Zimnyaya) emas, hattoki nutq faoliyati turlari – gapirish, o`qish, tinglab tushunish va yozishga o`rgatish ham emas, balki, ko`rsatilgan nutq faoliyati turlarini muloqot vositasi sifatida o`zlashtirishga qaratilmog`i zarur [111: 63].

Olimning fikriga ko`ra kommunikativ metodning psixologik asosi shaxs faoliyati yondashuvi ma`lumotlaridan iborat bo`lishi lozim. Kommunikativ metod xususiy metodik ma`no kasb etib, uning bugungi kunda vujudga kelgan variantida chet tilda nutq faoliyati va chet til madaniyatini muloqot vositasi sifatida o`rganish maqsad qilib qo`yilgan. Kommunikativ metod asosida tashkil etilgan darslarda o`quvchilarga o`zgarar nutqini kuzatish, o`zgalarning fikrini tushunish yoki o`z fikrini izhor etish bilan bevosita nutqiy faoliyatga kirishish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе: Проблемы и перспективы. – М.: Просвещение, 1988. – 234 с.
2. Блаус А.Я. Преемственность в системе методов обучения. – Рига: Велгус, 1971. – 140 с.

3. Владиславлев А.П. Непрерывное образование: проблемы и перспективы. – М.: Молодая гвардия, 1978. – 175 с.
4. Вопросы преемственности и преподавания иностранных языков в средней и высшей школе: Сб. науч. тр. – Свердловск: УрГУ, 1984. – вып. 1. – 147 с.
5. Головкина Е.Ф. Вопросы преемственности при формировании понятий на уроках истории в IV–VIII классах. – М.: Просвещение, 1985. – 208 с.
6. Jalolov J.J. Sheh til o`qitish metodikasi: Sheh tillar oliy o`quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O`qituvchi, 1996. – 368 b.
7. Plieva L. Sheh til ta`limida izchillikni ta`minlash texnologiyasi // Pedagogik ta`lim jurnali. – 2006. – 1-son. – B. 70-71.
8. Yo`ldoshev O`. Didaktik printsiplar tizimida tarixiylik. – T.: Fan, 2005. – 70 b.
9. Комарова М.В. Преемственность обучения иностранному языку в средней и высшей школе: Дис. ... канд. пед. наук. – Барнаул: БГПУ, 2002. – 145 с.
10. Кулагин П.Г. Межпредметные связи в процессе обучения. – М.: Просвещение, 1981. – 96 с.
11. Лебедева Ж.М. О преемственности в обучении иностранному языку в неязыковом вузе/ Вопросы преемственности курсов иностранного языка средней и высшей школы: Сб. науч. тр. – Свердловск: УрГУ, 1976. – вып. 2. – С. 53-59.
12. Маматов А. Типология речевых ошибок и вопросы языковой нормы/ Проблема языкового взаимодействия: – Ташкент, 1990. – С. 56-62.
13. Насирова М.Э. Преемственность обучения началам анализа в школе и педагогическом институте: Дис. ... кан. пед. наук. – T.: УзНИИПН, 1992. – 168 с.
14. Ingliz tilidan takomillashtirilgan davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi // Til va adabiyot ta`limi jurnali. – 2005. – № 4. – B. 65-75.